

**O`ZBEKISTONDA BOSHLANG`ICH TA`LIM TIZIMI,
UNING YUTUQLARI VA E`TIBORGA MOLIK JIHATLARI**

Guliston Davlat Pedagogika Instituti magistranti

Shukurullayev Jahongir Uktam o`g`li

[*jahongirshukurullayev3@gmail.com*](mailto:jahongirshukurullayev3@gmail.com)

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Sayfullayeva Azima Shuhratbek qizi

[*azimasayfullayeva@gmail.com*](mailto:azimasayfullayeva@gmail.com)

Annotatsiya: *ushbu maqolada O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim tizimi, uning tuzilishi va yutuqlari haqida batafsil ma'lumot betilgan.*

Аннотация: *в данной статье представлена подробная информация о системе начального образования в Узбекистане, ее структуре и достижениях.*

Annotation: *detailed information on the system of primary education in Uzbekistan, its structure and achievements is presented in this state.*

Kalit so'zlar: *dunyoviylik tamoyili, ilmiy yondashuv, ta'lim strukturasi.*

Ключевые слова: *принцип светскости, научный подход, структура образования.*

Key words: *principle of secularism, scientific approach, structure of education.*

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi. O'zbekiston pedagogikasi taraqqiyotida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" asrlar davomida rivojlanib kelgan. Mazkur predmetning tarixiy taraqqiyotini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

eng qadimgi davr (VII asrgacha);

o'rta asrlar davri (IX-XIX asrlar);

yangi davr (XX-XXI asrlar).

Eng qadimgi davr Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi manbalarini xalq og'zaki ijodi, "Avesto" asari va arxeologik topilmalar tashkil qiladi.

Bu davrda boshlang'ich ta'lim oilada va ibodatxonalar huzuridagi bilimxonalarda berilgan. Unda yozish, o'qish va biror hunarga yo'naltirishga e'tibor qaratilgan. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining o'rta asrlar davridagi manbalari juda ko'p bo'lib, ular Ustoz mutafakkirlar tomonidan yaratilgan. Jumladan, Imom Buxoriyning "Al-adab", Hakim Termiziyning "Ma'rifat", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Xojanazar Huvaydoning "Rohati dil", SHermuhammad Munisning "Savodi ta'lim" asarlarida boshlang'ich ta'limni tashkil etish va o'qitish metodologiyasi tahlil qilib berilgan. Bu davrda o'g'il bolalar masjidlar qoshidagi maktablarda boshlang'ich ta'lim olgan, qiz bolalar esa Otinoyi o'qituvchilar tashkil etgan maktablarda o'qishgan. Mazkur davrda boshlang'ich ta'limdan boshlab islom dini asoslari o'qitilgan va fikrlash, nutqni o'stirish uchun shoirlarning she'rlari yodlatilgan. Misol uchun, Alisher Navoiy 6 yoshida Farididdin Attorning (XIII asr) "Mantiq ut-tayr" (Qush tili) asarini yodlab olganligini yozgan.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining yangi davrida boshlang'ich ta'limni ilmiy – pedagogik qonuniyatlar asosida amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Natijada O'zbekiston boshlang'ich ta'limida dunyoviylik tamoyili usituvor bo'lib, bu tizim xalqaro standartlarga moslashdi. Mazkur davrning manbalarini boshlang'ich ta'lim muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar va darsliklar tashkil etadi. O'tgan asrning 30-yillariga kelib O'zbekistonda barcha maktab yoshidagilar boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olindi.

O'zbekiston "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tarixi quyidagi tajribalarga ega:

- o'qitishning eng oson va maqbul metodlarigi egalik ;
- har bir bolaning savodxon bo'lishiga erishish;
- har bir bolani bilim olishga qiziqtirish ;
- ta'lim texnologiyalarining eng zamonaviy shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

-professional boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlash.

1998 yili YuNESKO tomonidan hozirgi zamon O'zbekiston boshlang'ich ta'limi eng ilg'or va samarali ta'lim turlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur tajribalar bugungi kunda dunyo miqyosida targ'ibot qilinishi kerak. Ta'lim jarayoni uzluksiz bo'lib, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan sifatli natijalarga olib keladigan islohotlarga bog'liqdir. Ushbu maqolada biz asosan umumiy o'rta ta'limning ilk bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'lim haqidagi fikrlarga alohida e'tibor qaratamiz. Haqiqatan ham, ta'limga zamonaviy yondashuvlar ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil qilish va qo'yilgan o'quv dasturlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi.

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi. Bu borada Finlandiya tajribasi misolqilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri.

Ta'limni isloh qilish haqida fikr yuritar ekanmiz, ta'lim olishning asosiy vositasi bo'lgan darsliklarni yangilamay turib, o'quvchi va o'qituvchi mustaqilligiga erishmasdan natijaga erishib bo'lmaydi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan ta'lim tizimi tadbiq qilingan. Unda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'z yosh xususiyatlari, tafakkuri hamda ruhiy darajalarini o'zlashtirish imkonini beradigan ta'limiy faoliyatga kirishadilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qish hamda o'rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o'quv predmeti bo'yicha nazariy bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi va tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o'z xarakteriga ko'ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo'lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishini, dunyoqarashining rivojlanishini ta'minlaydi. Shu asosga ko'ra, boshlang'ich ta'limning bosh maqsadi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ta'lim olishga, o'rganishga qaratilgan faoliyatni shakllantirish. Va shu asosida ularni tarbiyalash hamda shaxsiy imkoniyatlarni

ro'yobga chiqarishdan iborat. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishida o'yin, sport, ijodiy faoliyat ham muhim o'rin tutadi. Lekin o'qish, o'rganish, ya'ni ta'limiy faoliyat boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga- bolani mujassam rivojlantirish maqsadiga yo'naltirishi lozim.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchilarda har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan tarbiya jarayonidir. Bugungi kunda o'zida ta'lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb mavzulardan biridir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitish va ulardan milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo'li amaliy jihatdan tadbiq qilinishi lozim. Bunda o'quv materialini shaklida berilgan ta'limiy matnlarda o'quvchilarda turli shakllarda axloqiy – ma'naviy tarbiya va milliy nafosat meyorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili va matematika ta'limining ahamiyati beqiyosdir. Barcha maktablarda “Milliy o'quv dasturi”ni to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish amalga oshirildi.

Boshlang'ich maktab o'quvchining umumiy ta'lim jarayonidagi eng muhim bosqichdir. To'rt yil ichida u nafaqat fan fanlarining dasturiy materialini o'zlashtirishi, balki qanday o'rganishni – “professional talaba” bo'lishni ham o'rganishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining mas'uliyati doimo eksklyuziv bo'lgan. Boshlang'ich maktabda olingan ta'lim keyingi ta'lim uchun asos, poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim boshlang'ich maktabning sifat jihatidan yangi shaxsga yo'naltirilgan rivojlanish modelini belgilaydi, u quyidagi asosiy maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan: o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyatlari, o'qishga qiziqish, o'rganishga intilish va qobiliyatni shakllantirish; ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiya; turli tadbirlarni amalga oshirishda bilim, ko'nikma, tajriba tizimini o'zlashtirish; bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini

muhofaza qilish va mustahkamlash; bolaning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash.

Finlandiya 2014-yilda asosiy ta'lim bo'yicha yangi milliy tayanch o'quv dasturini ishlab chiqdi va u 2016-yil avgust oyidan boshlab Finlandiya maktablarida amaliyotga joriy qilina boshlandi. O'quv dasturini isloh qilishdan maqsad o'qituvchilar va pedagoglarga bolalar va yoshlarning hayotida zarur bo'lgan narsalarni o'rgatishda yordam berishdir. (Sahlberg 2015.)

Finlandiya ta'limining oliy maqsadi farzandlarimizni hayotga tayyorlashdir. Biz farzandlarimiz kelajakda ularning hayotida yordam beradigan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni o'rganishlarini xohlaymiz. Shuning uchun biz bugungi tez o'zgaruvchan dunyoda ularga qanday muhim kompetensiyalar kerak bo'lishi haqida o'ylashimiz kerak.

Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi yaratilgan "Milliy o'quv dasturi" asosida chiqarilgan darslikda o'quvchilarning og'zaki bilim ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'qish (umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot) fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
3. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.
4. <https://kun.uz/uz/news/2022/10/08/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son 9.

6. Новые подходы к обучению в начальных классах в условиях обновления содержания образования (infourok.ru)
7. Моисеенко О.А., Краснополова А.С. К вопросу об учебной игре как интенсифицирующем средстве начального иноязычного образования // Современные проблемы науки и образования. – 2018. – №
8. Азитова Г.Ш., Краснова М.Н. Особенности системы образования в Китае // Современные проблемы науки и образования. – 2017. – № 5. URL: <https://scienceeducation.ru/ru/article/view?id=26953> (дата обращения: 06.02).
9. Сарачоглу З.К. Некоторые аспекты изменения содержания экологического образования в начальных школах Турции // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2-2.
10. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv. Ma'rifat. 2022-yil 27-iyul. №29 (9406).
11. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.

Foydalanilgan saytlar.

1. www.ziynet.uz
2. www.eduportal.uz
3. www.pedagog.uz